

O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan bir guruh vatandoshlarimiz taqdirlandi

Davlatimiz Rahbarining **“O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida”gi Farmoniga** muvofiq mamlakatimizda ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, sohaga doir islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, o'quv-tarbiya jarayoniga milliy va ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ishlariga qo'shgan munosib hissasi, o'quvchilarga ilm-fan asoslari va zamonaviy kasb-hunarlarini o'rgatish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, Yangi O'zbekistonni bunyod etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lidagi katta xizmatlari, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarni ona Vatanga mehr va sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdagi ibratli faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun bir guruh xodimlar faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlandilar. Ular orasida Fanlar akademiyasi vakillari ham bor:

“O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan murabbiy” faxriy unvoni bilan

Formanov Shakir Kasimovich - O'zbekiston Milliy universiteti professori, akademik;

“Do'stlik” ordeni bilan

Axmedov Ashraf - O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti bo'lim boshlig'i.



Taqdirlanganlarni davlatimizning yuksak mukofotlari bilan qutlaymiz hamda kelgusidagi faoliyatlarida muvaffaqiyatlar, ilm-fan ravnaqi, kelajak avlod tarbiyasida kuch-quvvat tilaymiz.